

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

DIFFERENTIAL FEATURES OF THE CONCEPTUAL SYSTEMS OF THE UZBEK OGHUZ DIALECTS AND THE STANDARD UZBEK LANGUAGE

Mokhira Sobirovna Sadullaeva*PhD in Philology**Lecturer, Navoi State University**Independent DSc Researcher**E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com**Science ID: FNV-0826-0006**Navoi, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Oghuz dialects, Uzbek literary language, conceptual system, conceptual field, cognitive semantics, semantic mapping, dialect corpus.

Received: 01.08.26**Accepted:** 03.08.26**Published:** 03.08.26

Abstract: This article analyzes the differential features observed in the conceptual systems of the Oghuz dialects of the Uzbek language and Standard Uzbek using a cognitive-semantic approach. The study identifies the categorization patterns of conceptual domains in the Oghuz dialects and examines their common and distinctive features in comparison with the normative concepts of Standard Uzbek. The research employs conceptual-semantic analysis, componential analysis, semantic mapping, and corpus-based frequency analysis. The research materials consist of written transcriptions of the Oghuz dialects, dialectological records, and literary and journalistic texts of Standard Uzbek. In addition, the Conceptual Differential Index (CDI) model is applied to assess conceptual differentiability, and a comparative analysis of the conceptual domains of time, space, kinship, and modality is conducted.

O‘ZBEK O‘G‘UZ SHEVALARI VA O‘ZBEK ADABIY TILI KONSEPTUAL TIZIMIDAGI DIFFERENSIAL JIHATLAR

Mohira Sobirovna Sa’dullayeva*f.f.f.d. (PhD)**Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi,**DSc mustaqil izlanuvchisi.**E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com**Ilmiy identifikatsiya raqami: FNV-0826-0006*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: o'g'uz shevalari, o'zbek adabiy tili, konseptual tizim, konseptual maydon, kognitiv semantika, semantik xaritalash, dialektologik korpus.

Annotatsiya: Maqolada o'zbek o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili konseptual tizimida kuzatiladigan differensial xususiyatlar kognitiv-semantik yondashuv asosida tahlil qilindi. O'g'uz shevalarida konseptual maydonlarning kategoriyalanish xususiyatlari aniqlanib, ularning o'zbek adabiy tilidagi normativ konseptlar bilan umumiy va farqli jihatlari yoritildi. Konseptual-semantik tahlil, komponent tahlili, semantik xaritalash hamda korpus manbalariga tayangan holda chastotaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. O'g'uz shevalarining yozma transkriptlari, dialektologik qaydlar hamda o'zbek adabiy tilining badiiy va publitsistik matnlaridan shakllantirilgan materiallardan foydalanildi. Shuningdek, konseptual differentsiallikni baholashda "konseptual differensial indeks" modelining qo'llanilishi hamda vaqt, makon, qarindoshlik va modalitet konseptlari doirasidagi farqlarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

**ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ
УЗБЕКСКИХ ОГУЗСКИХ ГОВОРОВ И УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА**

Мохира Собировна Саъдуллаева

Доктор философии (PhD)

по филологическим наукам

преподаватель Навоийского государственного университета

независимый соискатель ученой степени DSc

E-mail: mohirasobirovna2020@gmail.com

Научный идентификационный номер: FNV-0826-0006

Навоий, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: огузские говоры, узбекский литературный язык, концептуальная система, концептуальное поле, когнитивная семантика, семантическое картирование, диалектологический корпус.

Аннотация: В статье на основе когнитивно-семантического подхода проанализированы дифференциальные особенности, наблюдаемые в концептуальной системе огузских говоров узбекского языка и современного узбекского литературного языка. Выявлены особенности категоризации концептуальных полей в огузских говорах, а также раскрыты их общие и отличительные черты по сравнению с нормативными концептами узбекского литературного языка. В исследовании

использованы методы концептуально-семантического анализа, компонентного анализа, семантического картирования и частотного анализа, основанного на корпусных данных. Материал исследования составили письменные транскрипции огузских говоров, диалектологические записи, а также художественные и публицистические тексты узбекского литературного языка. Кроме того, для оценки концептуальной дифференциальности применена модель «Индекс концептуальной дифференциальности», на основе которой проведён сравнительный анализ различий в концептах времени, пространства, родства и модальности.

Kirish. O'zbek tilining o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish zamonaviy o'zbek tilshunosligining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. An'anaviy dialektologik tadqiqotlarda shevalar va adabiy til o'rtasidagi farq asosan fonetik, leksik hamda grammatik sathlarda tahlil qilingan bo'lsa, keyingi yillarda mazkur farqlarni konseptual tizim doirasida tadqiq etishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Zamonaviy kognitiv tilshunoslik yondashuvlari mazkur tafovutlarni konseptual tizim doirasida ham o'rganish zarurligini ko'rsatmoqda. Zero, til birliklari nafaqat nominativ vosita, balki xalqning borliqni idrok etishi, tajribani umumlashtirishi va ijtimoiy-madaniy bilimlarni uzatishini aks ettiruvchi kognitiv model sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'zbek tilining janubi-g'arbiy arealida shakllangan o'g'uz shevalari tarixiy taraqqiyoti davomida turkman va Xorazm madaniy-lisoniy muhiti bilan uzviy aloqada rivojlangan. Mazkur omil ayrim konseptlarning semantik tuzilishi, ularning markaziy va periferik qatlamlari hamda pragmatik xususiyatlarida adabiy tilga nisbatan o'ziga xos farqlarni yuzaga keltirgan. Xususan, vaqt va qarindoshlik kabi konseptual maydonlarda voqelikni kategoriyalash usullari, konseptlarning pragmatik talqini hamda ularning nutqdagi funksional faolligi dialekt va adabiy til o'rtasidagi konseptual tafovutlarni yoritishda muhim ilm iy manba bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek shevalarining tasnifi va o'g'uz dialektlariga xos lisoniy belgilar yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, ularning konseptual tizimini kognitiv-semantik nuqtayi nazardan kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi [1; 2]. Xususan, kognitiv semantika doirasida ishlab chiqilgan ramka nazariyasi va prototip yondashuvi dialekt hamda adabiy til o'rtasidagi konseptual tafovutlarni semantik xaritalash asosida izohlash imkonini bersa-da,

mazkur metodologiyaning o'zbek dialektologiyasi materiallariga tizimli tatbiqi hali yetarli darajada amalga oshirilmagan [3; 4].

O'zbek o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili konseptual tizimidagi differensial jihatlarini aniqlash, ularning shakllanish mexanizmlarini izohlash hamda ayrim konseptual maydonlar doirasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilish lozim. Shu maqsaddan kelib chiqib, vaqt, makon, qarindoshlik va modalitet kabi konseptual maydonlarni ajratish, ulardagi differensial semantik indikatorlarni belgilash, korpus materiallari asosida ularning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash hamda olingan natijalarni konseptual differensiallik nuqtayi nazaridan umumlashtirish vazifalari belgilandi.

Dialektologik tavsif usullarini kognitiv-semantik modellash bilan uyg'unlashtirish orqali o'g'uz shevalariga xos konseptual farqlarning diagnostik mezonlarini ishlab chiqildi. Shuningdek, sheva va adabiy til o'rtasidagi munosabatda normativlashuv jarayonining ayrim konseptual segmentlarning semantik tuzilishi hamda funksional taqsimotiga ta'siri izohlanadi [14].

Tadqiqot natijalari dialektologik lug'atlar tuzish, sheva materiallarini o'quv adabiyotlariga ilmiy asosda kiritish hamda adabiy til me'yorlarini o'qitishda yuzaga keladigan semantik interferensiya holatlarini aniqlash va tavsiflashda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida o'g'uz shevalarining og'zaki nutq transkripsiyalari, dialektologik ekspeditsiya materiallari hamda o'zbek adabiy tilining badiiy va publitsistik matnlari asosida qiyosiy korpus shakllantirildi. Tadqiqot korpusi 10 mingga yaqin so'zdan iborat bo'lib, shundan 5,5 mingga yaqini o'g'uz shevalari materiallari, 4,5 mingga yaqini esa o'zbek adabiy tili matnlarini tashkil etdi (Muallif ilmiy izlanishlarining hisob-kitob natijalari asosida olingan).

Materiallarni tanlashda qiyosiylik tamoyiliga amal qilinib, uy-ro'zg'or, mehnat, qarindoshlik, marosim, safar va baholashga oid kommunikativ vaziyatlar bo'yicha parallel matnlar saralandi. Tahlilda konseptual-semantik va komponent tahlili, semantik xaritalash hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Dialekt materiallarida fonetik xususiyatlar saqlangan holda, asosiy e'tibor til birliklarining semantik va pragmatik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilishga qaratildi [9;10; 13].

Konseptual-semantik tahlil, komponent tahlili, semantik xaritalash hamda qiyosiy-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Konseptual-semantik tahlil konseptual maydonlarning tuzilishi va tarkibiy komponentlarini aniqlashga, komponent tahlili esa differensial semantik belgilarni ajratishga xizmat qildi. Semantik xaritalash orqali o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tilidagi konseptual birliklarning o'zaro munosabati qiyosiy tahlil qilindi.

Har bir konseptual maydon bo'yicha aniqlangan semantik indikatorlarning qo'llanish chastotasi 10 ming so'zga nisbatan normallashtirildi va qiyosiy tahlil asosida baholandi. Olingan natijalarni umumlashtirishda konseptual differensiallikni baholash modeli qo'llanildi, bu esa o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili konseptual tizimi o'rtasidagi farqlarni kompleks tahlil qilish imkonini berdi [5; 9; 10].

Natija. O'zbek o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili konseptual tizimi o'rtasidagi differensial xususiyatlarning turli konseptual maydonlarda bir xil darajada namoyon bo'lmashligini ko'rsatdi. Eng yuqori differensiallik modalitet va vaqt konseptlarida kuzatildi. Makon hamda qarindoshlik konseptlarida esa farqlar nisbatan pastroq bo'lib, ular asosan semantik birliklarning qo'llanish chastotasi va pragmatik funksiyalarida namoyon bo'ldi.

Vaqt konseptini tahlil qilish natijasida o'g'uz shevalarida yaqin o'tmish va davom etayotgan holatni ifodalovchi birliklar ko'proq kontekst, diskursiv vositalar hamda pragmatik omillar orqali reallashishi aniqlandi. O'zbek adabiy tilida esa mazkur konsept grammatik va leksik vositalar yordamida izchil hamda me'yoriy tarzda ifodalanishi kuzatildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, vaqt konsepti bo'yicha o'rtacha differensial chastota 2,8 birlikni, konseptual differensial indeks (KDI) esa 0,62 ni tashkil etdi.

Makon konsepti bo'yicha o'g'uz shevalarida yo'nalish va lokativ munosabatlarni ifodalashda tabiiy topografik obyektlarga tayanuvchi nominativ birliklarning faolroq qo'llanishi kuzatildi. O'zbek adabiy tilida esa umumlashgan lokativ birliklar va deiktik vositalar ustunlik qiladi. Mazkur konseptual maydonda o'rtacha differensial chastota 1,6 birlik, KDI qiymati esa 0,41 ni tashkil etdi.

Qarindoshlik konsepti tahlili o'g'uz shevalarida murojaat shakllari va affinal munosabatlarni ifodalovchi birliklarning nisbatan faol qo'llanishini ko'rsatdi. O'zbek adabiy tilida esa terminlarning me'yorlashgan va barqaror qo'llanishi kuzatildi. Ushbu konseptual maydon uchun o'rtacha differensial chastota 1,2 birlik, KDI esa 0,33 ni tashkil etdi.

Modalitet konsepti bo'yicha eng yuqori differensial ko'rsatkichlar qayd etildi. O'g'uz shevalarida modal ma'nolar asosan diskursiv zarralar, kuchaytirgichlar hamda kontekst orqali ifodalansa, o'zbek adabiy tilida modal yordamchi birliklar va me'yorlashgan konstruksiyalar yetakchi o'rin egallaydi. Mazkur konseptual maydonda o'rtacha differensial chastota 3,1 birlikni, KDI qiymati esa 0,67 ni tashkil etdi.

Konseptual maydonlar bo'yicha olingan miqdoriy natijalar 10 ming so'zga normallashtirilgan ko'rsatkichlar asosida hisoblandi. Ularning umumlashtirilgan ko'rinishi 1-jadvalda keltirilgan. Jadvaldagi ma'lumotlar konseptual maydonlar o'rtasidagi mutlaq ustunlikni emas, balki o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili konseptual tizimlari o'rtasidagi differensial taqsimotni ifodalaydi.

**O'zbek o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tilida konseptual maydonlarning
differensial ko'rsatkichlari (10 ming so'zga normallashtirilgan)**


Jadval 1.

Konseptual maydon	O'rtacha Δ (delta) chastota	KDI qiymati	Differensiallik darajasi
Vaqt	2,8	0,62	Yuqori
Makon	1,6	0,41	O'rtacha
Qarindoshlik	1,2	0,33	Nisbatan past
Modalitet	3,1	0,67	Juda yuqori

KDI (Konseptual differensial indeks) qiymati o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili konseptual tizimlari o'rtasidagi differensiallik darajasini ifodalaydi. Yuqori KDI qiymati konseptual maydonlarda differensial xususiyatlarning kuchliroq namoyon bo'lishini anglatadi.

**O'zbek o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili konseptual tizimlarida konseptual
differensial indeks (KDI) qiymatlarining qiyosiy taqsimlanishi**

Rasm 1.



Diagrammada konseptual maydonlar bo'yicha hisoblangan KDI qiymatlari aks ettirilgan. Natijalarga ko'ra, modalitet (0,67) va vaqt (0,62) konseptlarida differensiallik darajasi yuqoriroq bo'lib, makon (0,41) hamda qarindoshlik (0,33) konseptlarida nisbatan pastroq ko'rsatkichlar qayd etilgan. Mazkur holat o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili o'rtasidagi konseptual tafovutlar

barcha maydonlarda bir xil emasligini, ayrim konseptual sohalarda esa sezilarli darajada kuchli namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Muhokama. O'zbek o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tili o'rtasidagi tafovutlar faqat til birliklarining shakliy xususiyatlarida emas, balki konseptual tizimning ichki tashkil topishida ham namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Bu holat dialekt va adabiy tilni fonetik yoki leksik variantlar yig'indisi sifatida emas, balki voqelikni konseptuallashtirishning turlicha modellariga ega tizimlar sifatida baholash zarurligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, modalitet va vaqt konseptlarida qayd etilgan yuqori differensiallik ushbu maydonlarning pragmatik omillarga nisbatan sezgirliги hamda adabiy tilda me'yorlashuv jarayonining kuchliligi bilan izohlanadi.

Modalitet va vaqt konseptlarida aniqlangan farqlar kognitiv semantikaning usage-based yondashuvi bilan hamohangdir. Mazkur yondashuvga ko'ra, konseptual tuzilmalar til birliklarining qo'llanish chastotasi va kommunikativ tajriba asosida shakllanadi hamda nutq amaliyotida barqarorlashadi [3; 6]. O'g'uz shevalarida modal ma'nolar ko'proq diskursiv zarralar, pragmatik kuchaytirgichlar va kontekst orqali ifodalansa, o'zbek adabiy tilida modal yordamchi birliklar hamda me'yorlashgan konstruksiyalar ustunlik qiladi. Shuningdek, vaqt konseptida ham shevalarda situativ va pragmatik talqin kuchliroq bo'lsa, adabiy tilda grammatik hamda leksik vositalarning me'yoriy qo'llanilishi yetakchi o'rin egallaydi. Bu esa konseptual maydonlarning ichki tashkil topishi turli kommunikativ ehtiyojlar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi [11;12].

Makon va qarindoshlik konseptlarida differensiallikning nisbatan pastligi mazkur konseptlarning umumiy madaniy hamda ijtimoiy asosga tayanishi bilan bog'liq. Har ikkala tizimda konseptual yadrolar deyarli umumiy bo'lib qoladi, farqlar esa asosan periferik birliklar va ularning pragmatik qo'llanishida namoyon bo'ladi. O'g'uz shevalarida makon ko'proq mikroareal topografik belgilar orqali aniqlashtirilsa, adabiy tilda umumlashgan lokativ birliklar ustunlik qiladi. Qarindoshlik konseptida genealogik munosabatlarni ifodalovchi asosiy terminlar ikki tizimda ham barqaror saqlangan bo'lsa-da, murojaat shakllari va muloqot etiketi bilan bog'liq birliklarda shevalarga xos variantlilik kuchliroq kuzatiladi. Bu holat konseptual periferiyaning o'zgaruvchanligi haqidagi turkiy tillar dialektologiyasida ilgari surilgan qarashlarni qo'llab-quvvatlaydi [2; 7].

O'g'uz shevalarida konseptual maydonlarning shakllanishida pragmatik omillar va nutq vaziyati muhim rol o'ynaydi, adabiy tilda esa me'yorlashuv jarayoni konseptual birliklarning qo'llanish doirasini nisbatan barqarorlashtiradi. Shu bois konseptual differensiallik, avvalo, konsept yadrosida emas, balki uning periferik komponentlari hamda ularning funksional faolligida yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Muhokama qilingan natijalarni umumlashtirish maqsadida o'g'uz shevalari va o'zbek adabiy tilining asosiy konseptual differensial xususiyatlari 2-jadvalda tizimlashtirildi.

**O‘zbek o‘g‘uz shevalari va o‘zbek adabiy tilida konseptual maydonlarning
differensial xususiyatlari**

Jadval 2.

Konseptual maydon	O‘g‘uz shevalariga xos xususiyatlar	O‘zbek adabiy tiliga xos xususiyatlar	Asosiy differensial belgi
Vaqt	Prototipik ma’nolar kontekst va pragmatik vositalar orqali aniqlashtiriladi	Vaqt ma’nolari grammatik va leksik vositalar orqali me’yorlashgan holda ifodalanadi	Pragmatik talqin ↔ normativ ifoda
Makon	Topografik tajriba va diskursiv konkretlashtirish ustun	Umumlashgan lokativ birliklar va standart deiksis vositalari ustun	Konkretlashtirish ↔ umumlashtirish
Qarindoshlik	Affinal munosabatlar hamda murojaat shakllarining variantlilik saqlangan	Qarindoshlik terminlari me’yorlashgan va rasmiylashgan	Variantlilik ↔ me’yorlashuv
Modalitet	Modal ma’nolar diskursiv markerlar va pragmatik kuchaytirgichlar orqali ifodalanadi	Modal yordamchi birliklar va grammatik konstruksiyalar ustun	Pragmatik modallik ↔ grammatik modallik

Jadval natijalar va muhokama davomida aniqlangan konseptual tafovutlarni tizimli ko‘rinishda aks ettirib, har bir konseptual maydonda kuzatilgan yetakchi semantik-pragmatik belgilarni qiyosiy tavsiflaydi. Mazkur jadval miqdoriy ko‘rsatkichlarni emas, balki tadqiqotning sifat jihatidan olingan xulosalarini umumlashtiradi.

2-jadvaldan ko‘rinadiki, konseptual tafovutlar barcha maydonlarda bir xil darajada namoyon bo‘lmaydi. Ular, avvalo, ma’no ifodalash strategiyalari, pragmatik vositalarning faolligi va til birliklarining me’yorlashuv darajasi bilan belgilanadi. Bu holat o‘g‘uz shevalari hamda o‘zbek adabiy tili o‘rtasidagi farqlarni nafaqat leksik yoki grammatik, balki kognitiv-semantik nuqtayi nazardan ham izohlash imkonini beradi.

Olingan natijalar o‘zbek o‘g‘uz shevalari va o‘zbek adabiy tili konseptual tizimlari o‘rtasidagi differensial xususiyatlar izchil qonuniyatlarga ega ekanini ko‘rsatdi. Bu esa dialekt va adabiy til munosabatlarini kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tadqiq etish o‘zbek

dialektologiyasining nazariy asoslarini boyitish bilan birga, konseptual modellashirishga tayangan yangi tadqiqotlar uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Konseptual tafovutlar, ayniqsa, vaqt va modalitet maydonlarida yaqqol namoyon bo'lsa, makon hamda qarindoshlik konseptlarida nisbatan barqarorlik kuzatildi. Bu holat o'g'uz shevalarida pragmatik omillar va nutq vaziyatining, adabiy tilda esa me'yorlashuv hamda kodifikatsiya jarayonlarining ustuvorligini tasdiqlaydi. Tadqiqotda qo'llanilgan konseptual differensial indeks (KDI) modeli sheva va adabiy til konseptual tizimlari o'rtasidagi farqlarni miqdoriy baholash imkonini berdi hamda ularni kognitiv-semantik nuqtayi nazardan tavsiflashning samarali vositasi ekanini ko'rsatdi. Olingan natijalar o'zbek dialektologiyasi va kognitiv semantika bo'yicha tadqiqotlarni boyitish, shuningdek, dialektologik lug'atlar tuzish, sheva materiallarini qiyosiy o'rganish hamda adabiy tilni o'qitish amaliyotini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaev F. O'zbek dialektologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2001. – 312 b.
2. Апресян Ю. Д. Избранные труды. Том I. Лексическая семантика (Синонимические средства языка). – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1995. – 472 с.
3. Bybee J. Language, Usage and Cognition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 262 p.
4. Fillmore Ch. J. Frames and the semantics of understanding // Quaderni di Semantica. – Torino: Rosenberg & Sellier, 1985. – P. 222–254.
5. Gries S. Th. Statistics for Linguistics with R: A Practical Introduction. – Berlin: De Gruyter Mouton, 2013. – 336 p.
6. Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 632 p.
7. Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 384 b.
8. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh.Sh. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 280 b.
9. Sa'dullayeva M. S. O'zbek shevalarida polisemiya (o'g'uz lahjasi misolida): filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Jizzax, 2025. – 170 b.
10. Sadullaeva M. Theoretical foundations of lingvoculturological analysis of Uzbek Oghuz dialects // Modern Scientific Research International Scientific Journal. – 2026. – Vol. 4, No. 5. – P. 5–12.

11. Taylor J. R. Linguistic Categorization. 3rd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2003. – 328 p.
12. Ungerer F., Schmid H.-J. An Introduction to Cognitive Linguistics. 2nd ed. – London: Routledge, 2006. – 389 p.
13. Wierzbicka A. Semantics: Primes and Universals. 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 500 p.
14. Кубрякова Е. С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.